

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAYLOV HUQUQINING KAFOLATLARI VA ULARNING AMALIY TA'MINOTI

Vahobova Rayhona

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi

Hammuallif: Hikmataliyev Muhammadali

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Po'latov Otabek

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20265499>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda saylov huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari tahlil qilinadi. Konstitutsiya va xalqaro hujjatlardagi kafolatlar, "Saylov to'g'risida"gi Qonun hujjatlari, shuningdek, saylovchilar ro'yxati, ovoz berish jarayoni va himoya mexanizmlaridagi amaliy muammolar ko'rib chiqiladi. Saylov huquqini ta'minlashning takomillashish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Saylov huquqi, demokratik davlat, siyosiy huquqlar, saylov kafolatlari, saylov qonunchiligi, huquqiy madaniyat, siyosiy faollik, xalqaro huquq, ovoz berish, saylov tizimi.

Saylov huquqi demokratik huquqiy davlatning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanib, fuqarolarning davlat hokimiyatini shakllantirishda bevosita ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu huquq nafaqat davlatning demokratikligini ko'rsatuvchi asosiy mezon, balki insonning siyosiy erkinliklarini amalga oshirishning muhim vositasidir. Saylovda fuqarolarning ishtirok etishi nafaqat O'zbekistonda balki Xalqaro miqyosida ham saylov huquqi insonning tabiiy huquqlaridan biri sifatida tan olingan bo'lib, BMT Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha Xalqaro paktning 25-moddasida hamda Yevropa Inson huquqlari konvensiyasining 1-ilovasining 3-moddasida mustahkamlangan. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham saylovga alohida ta'rif berilgan.

O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi fuqarolarning eng muhim siyosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolar saylov orqali davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda ishtirok etadilar. Bilamizki saylovda ishtirok etishning ikki ko'rinishi mavjud. Faol saylov huquqi (Saylash huquqi): Fuqaroning saylovlarda ishtirok etishi, o'ziga ma'qul bo'lgan nomzodga yoki siyosiy partiyaga ovoz berishidir. Passiv saylov huquqi (Saylanish huquqi): Fuqaroning o'z nomzodini davlat boshqaruvi va vakillik organlariga ko'rsatish va saylanish huquqidir. 1991-yil mustaqillikka erishilgandan so'ng saylov tizimi demokratik tamoyillar asosida shakllantirishga kirishdi. Sobiq ittifoq davridagi bir partiyaviy tizim o'rniga ko'ppartiyaviy saylov tizimi joriy etildi. 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi saylov huquqining asosiy konstitutsiyaviy kafolatlarini belgilab berdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida saylov qonunchiligini yaratish davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'ldi. Saylov tizimining rivojlanishi bilan fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki kengaydi. Keyingi yillarda saylovlarni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha islohotlar amalga oshirildi. Saylov qonunchiligidagi o'zgarishlar saylovlarning oshkoraligi va shaffofligini kuchaytirishga xizmat qildi. Yagona elektron saylovchilar ro'yxatining joriy etilishi saylov tizimida muhim yangiliklardan biri bo'ldi.

Saylovlarda xalqaro kuzatuvchilarning ishtiroki kengaytirildi va bu saylov jarayonining ochiqligini oshirdi.

O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksining qabul qilinishi saylov qonunchiligini tizimlashtirishda muhim bosqich bo'ldi. Zamonaviy bosqichda saylov tizimini raqamlashtirish va fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Saylov tizimidagi islohotlar demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli saylovlarning erkin, oshkora va adolatli o'tishi uchun turli huquqiy kafolatlar yaratilgan. Saylov huquqining kafolatlari fuqarolarning saylash va saylanish huquqini himoya qilishga xizmat qiladi. Saylovda ishtirok etish uchun bir necha asosiy qoidalar mavjud. Bulardan biri yosh chegarasi. Saylov kuni 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylovda qatnashish huquqiga ega bo'ladi. Keyingisi esa sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar saylovda qatnasha olmaydi. Davlatimiz saylovlarda ishtirok etish uchun yetarli imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ya'ni davlat tomonidan fuqarolarga o'z huquqlaridan erkin foydalanishi uchun yaratilgan sharoitlar. Maxfiy ovoz berish, tenglik va ochiqlik, umumiylik prinsipi. Lekin hozirda ko'p holatlarda kuzatishimiz mumkin bo'lgan vaziyat, yani saylovda to'liq qatnashmaslik yani shaxslarning ushbu siyosiy vaziyatda o'zlarining fikrlarini ifodalash huquqidan foydalanmayotganiga duch kelyapmiz. Ushbu vaziyatni yaxshilash uchun biz qator ishlarni amalga oshirishimiz kerak. Bulardan biri saylovlarga barcha fuqarolarni jalb qilish uchun saylovda qatnashishni majburiy qilishni belgilash yani O'zbekiston Respublikasi saylov qonunchiligiga o'zgartirish kiritish kerak. Lekin bu siyosiy voqea shaxslarni saylovda qatnashish erkinligidan mahrum qilish emas, balki ularning burchlarini eslatish, shu bilan birga jamiyatda bo'layotgan yangiliklarga befarq qolmaslik. Aynan ushbu sohada Turkiya Respublikasida ham saylovda qatnashish majburiy hisoblanadi. Agar fuqaro uzursiz sabab bilan saylovda ishtirok etmasa unga ma'muriy jarima qo'llanilishi mumkin. Ushbu tartib Turkiyaning saylov qonunchiligida belgilangan. Shu bilan birga ba'zi holatlarda jarima miqdori o'zgarib turgan. Masalan jarima miqdori 2023-yildagi saylovlarda Turk valyutasiga ko'ra 300 lira atrofida bo'lgan. 2025- yil esa ayrim manbalarda jarima miqdori 750 turk lirasida ko'rsatilgan. Rivojlangan davlatning saylov qonunchiligiga kiritilgan ushbu javobgarlik chorasining O'zbekistonda joriy etilishining bir necha ijobiy taraflari esa saylovda qatnashish majburiyligi fuqarolarning siyosiy faolligini oshiradi. Natijada saylovlarda qatnashuv darajasi yuqori bo'ladi va davlat boshqaruvida xalq fikri kengroq aks etadi. Bu esa demokratik jarayonlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, fuqarolarning saylovlarda faol ishtiroki jamiyatda siyosiy madaniyatning rivojlanishiga yordam beradi. Insonlar davlat boshqaruvi, qonunlar va siyosiy jarayonlarga befarq bo'lmay qoladi. Natijada aholining siyosiy savodxonligi oshib, fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini yaxshiroq anglay boshlaydi.

Yana bir ijobiy tomoni shundaki, saylovlarda ko'pchilik qatnashganida saylov natijalari xalq irodasini to'liqroq ifoda etadi. Bu esa saylangan rahbarlar va davlat organlariga nisbatan ishonchni oshiradi. Chunki qarorlar aholining katta qismi fikriga tayangan holda shakllangan deb hisoblanadi. Shuningdek, yuqori ishtirok siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga va fuqarolarning davlat hayotidagi mas'uliyat hissini kuchaytirishga xizmat qiladi. O'zbekiston qonunchiligida ushbu yangilikni birdaniga joriy etilishi qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun

avvalo jamiyatda shaxslarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirishga e'tibor qaratishimiz lozim. Buni maktab va oliy ta'lim muassasalaridan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun avvalo maktab darsliklarida qonunchilikni bilish hamda ularni tushunish, shu bilan birga huquqiy savodxonligini oshirish uchun o'quv darsligi joriy etilishi kerak. Bundan tashqari huquqiy savodxonlikni bilish darajasini aniqlash sertifikatini joriy qilinishi kerak. Bunda maktab va litseydagi o'quvchilar aynan o'quv faoliyatini tamomlayotganda ushbu sertifikatni olishi mumkin. Ushbu sertifikatni hatto katta yoshdagi shaxslar ham olishlari kerakligi. Buning natijasida shaxslarning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajalari oshiriladi. Ushbu faoliyat natijasida fuqarolarda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga nisbatan befarq bo'lmasligi, hamda o'zining erkin fikrini ifoda eta olishi natijasida davlatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi va shu davlat yashayotganini hamda bo'layotgan siyosiy yangiliklarga befarq bo'lmasligini ta'minlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, saylov huquqi demokratik huquqiy davlatning eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolarning saylash va saylanish huquqini ta'minlash davlat hokimiyatining xalq irodasi asosida shakllanishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida saylov tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda saylovlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash borasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, saylov qonunchiligining rivojlantirilishi, Saylov kodeksining qabul qilinishi va yagona elektron saylovchilar ro'yxatining joriy etilishi saylov tizimining huquqiy asoslarini mustahkamladi.

Shu bilan birga, fuqarolarning saylovlardagi siyosiy faolligini oshirish, ayniqsa yoshlarning siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish, fuqarolarning siyosiy ongini rivojlantirish hamda xorijiy tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida saylov tizimini yanada takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, saylov jarayonining ochiqligi va adolatligini kuchaytirish demokratik jamiyat rivojiga xizmat qiladi. Erkin va adolatli saylovlar esa fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlab, mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib qoladi. Bundan tashqari, saylov huquqining amalda samarali ta'minlanishi fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Saylovlarda aholining faol ishtirok etishi jamiyatda fuqarolik mas'uliyati, siyosiy madaniyat va huquqiy ongning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli har bir fuqaro saylov jarayonlariga befarq bo'lmasdan, o'zining konstitutsiyaviy huquqidan oqilona foydalanishi muhim hisoblanadi.

Zero, xalqning erkin fikri va faol ishtiroki demokratik davlatning asosiy tayanchi hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. – Toshkent, 2019.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT, 1948.

4. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. – Nyu-York, 1966.
5. Lex.uz milliy qonunchilik bazasi
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi rasmiy sayti
7. idea.int

